

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM KAFEDRASI

Tojiyeva Xayrinisoning

***“BAHOUDIN NAQSHBANDNING TA‘LIMiy-AXLOQiy
QARASHLARI” mavzusida yozgan***

REFERAT

Qarshi – 2014 yil

MUNDARIJA

Kirish

Asosiy qism:

1. Bahouddin Naqshbandning ta'limiy—axloqiy qarashlari
2. Bahouddin Naqshband ta'limiy-axloqiy qarashlaridan ta'lim jarayonida foydalanish
3. Barkamol inson tarbiyasi - Naqshbandiya ta'limotining negizi sifatida
4. Bahouddin Naqshband ta'limiy - axloqiy qarashlarining o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashdagi imkoniyatlari
5. Xulosa
6. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov 2003 yil 28 noyabr kuni ulug’ alloma Abdulxoliq G‘ijduvoniylar tavalludining 900 yilligiga bag‘ishlangan anjumanda so‘zlagan nutqida shunday degan edi: «Buxoroni Buxoroi sharif darajasiga ko‘targan ana shunday ajdodlarimiz orasida hazrat Bahouddin Naqshbandning muborak siymosi alohida nufuz va makomga ega. Bu ulug’ shaxs timsolida inson ruhiyatining naqadar teranligi, bu dunyoda o‘z irodasini tarbiyalab, qalbini poklab nafs balosini yengib yashaydigan odam qanday ma’naviy yuksaklikka ko‘tarila olishi yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu buyuk zot el—yurtga xolisona xizmat qilish, avvalo ma’rifat yo‘lida odamlarning qalbiga chuqur kirib borish orqali ularda ezgu intilishlarga orzu—umidlar uyg‘otish mumkinligini o‘z hayoti misolida isbotlab berdi.

Ota—bobolarimiz bu buyuk avliyoga chin dildan ixlos qo‘yib, yuz yillar davomida uni «Bahouddini Balogardon» deb ulug‘lab kelishida ham albatta teran ma’no bor.

Darhaqiqat, Yaratganning qudrati bilan karomat sohibi bo‘lgan bu aziz zotning ruhi poklari o‘tmishda ham, bugun ham bamisoli yurtimiz osmonida kezib, ona diyorimizni yomon ko‘zlardan, ofatlardan, bala - qazolardan asrab kelmoqda, desak, hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi»¹

Darhaqiqat, tasavvuf ta’limotining yirik namoyandasi mazkur ta’limotni demokratlashtirgan ulug’ alloma Bahouddin Naqshband musulmon olamida o‘zining barkamol inson haqidagi g‘oyalari bilan mashhurdir.

Bahouddin Naqshbandning ta’limiy — axloqiy merosni pedagogik muammo sifatida o‘rganishning keng ko‘lam kasb etishi 1992 yil 4 noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A.Karimovning Bahouddin Naqshbandning 675 yillik yubileyini o‘tkazish haqidagi Farmoni bilan tavsiflanadi. Bunda 1993 yil 15 sentabr kuni alloma tavalludining 675 yilligiga

¹ Karimov I.A. Ulug’ alloma Abdulxoliq G‘ijduvoniylar tavalludining 900 yilligiga bag‘ishlangan marosimda so‘zlagan nutqi. //Xalq so‘zi ro‘znomasi. — 28 noyabr 2003.

bag'ishlangan tadbirlar muhim rol o'ynadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi sharoitida demokratik jamiyatni barpo etish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda ular mazmunida ilgari surilgan g'oyalarni o'rganishga berilayotgan e'tibor, Bahouddin Naqshband ta'limotining hayotiyligi, o'zida ezgu qarashlarni namoyon eta olishi, tasavvuf ilmining mohiyatini o'rganishga bo'lgan qiziqshpning yuzaga kelishi, Bahouddin Naqshband ta'limoti g'oyalari asosida o'quvchilarni barkamol inson sifatida tarbiyalash asosiy masala bo'lib hisoblanadi.

1. Sharq mutafakkirlarining boy merosi, ularning pedagogik qarashlari, ayniqsa, axloq-odob, insof, diyonat, imon, vijdon, mehnatsevarlik, ilmsevarlik, insoniylik xususidagi g'oyalari insonni har tomonlama va uyg'un rivojlantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan qaraganda, XIV asrda yashab o'tgan tasavvuf ta'limotining yirik namoyandasi Bahouddin Naqshbandning ta'limiy-axloqiy qarashlarida asosii o'rin tutgan vatanparvarlik, erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, yomon-e'tiqodlilik, xalollik, axloqiy poklik, odillik, birodarlik, bilimlilik, hurfiylik kabi barkamol inson tarbiyasiga xos g'oyalarni o'quvchi va talabalar ongiga singdirish shu kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Bahouddin Naqshband o'zining tasavvuf ta'limoti bilan xalqimiz ma'naviyatini rivojlantirish va musulmon xalqlari madaniyatining taraqqiyoti hamda ijtimoiy-pedagogik fikr rivojiga salmoqli hissa qo'shgan. Bahouddin Naqshband ta'limoti mazmunida insonni yuksaklikka eltuvchi, go'zallikdan bahramand qiluvchi mezon sifatida aql-idrok yotadi. Shu nuqtai nazardan Bahouddin Naqshband ta'limotini o'rganishga yo'naltirilgan faoliyat o'zining murakkab tarixiy-ma'naviy ildiziga ega.

Bahouddin Naqshband haqida buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'zining «Nasoyim ul-muhabbat» asarida uning piru-ustozlari uvaysiy ekanliklari haqida ma'lumot beradi. Taniqli tasavvufshunos olim Najmiddin Komilovning «Tasavvuf yoki barkamol inson axloqi» hamda «Tasavvuf, tavhid asrori» nomli kitoblarining chop etilishi o'zbek tasavvufshunosligida o'ziga xos burilish yasadi, Bu asarlarda tasavvuf va uning paydo bo'lishi, rivojlanish bosqichlari va pog'onalari yoritib berilgan. Asarlarda Bahouddin Naqshband hayot yo'li va tariqati haqida ko'plab ma'lumotlar berilgan.

Bu sohada qilingan tadqiqotlar orasida sharqshunos olim Mahmud Hasaniyning ishlarini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Olim fors tilida yozilgan «Makomati Xoja Bahouddin Naqshband» nomli asarni tarjima qilgan. Ushbu asar «Bahouddin Balo-gardon» deb ataladi. Bu asar Bahouddin Naqshbandning hayoti va bosib o'tgan yo'lini mukammal bayon qiluvchi manba hisoblanadi.

Sharqshunos olim Orif Usmonning Bahouddin Naqshband va

naqshbandiya ta'limotini o'rganishda «Bahouddin Naqshband va uning ta'limoti haqida» asarining nashr etilishi ayni muddao bo'ldi, bu asarda Bahouddin Naqshband hayoti va naqshbandiya tariqatiga oid o'n bitta axloq-odob qoidalari haqida fikr yuritiladi.

S.S.Buxoriyning «Dilda yor» (Badia), «Durdona» kabi risolalarida Bahouddin Naqshband ta'limotining muayyan qirralari tahlil etiladi.

Izzat Sultonning «Bahouddin Naqshband abadiyati» va Hamidxon Islomiyning «Ipor hidi ila tug'ilgan orif Xoja Bahouddin Naqshband» nomli risolalarida Bahouddin Naqshbandning tarjimai holi, tariqatiga oid ayrim ma'lumotlar beriladi.

Bahouddin Naqshband ta'limoti allomaning hayotlik chog'idayoq Movarounnahrda fakat shahar hunarmanddari orasidagina emas, balki ko'chmanchi turkiy xalqlar o'rtasida ham keng tarkalgan. Bahouddin Naqshbandni bir qator olimlar tasavvufdagi yangi tariqatning asoschisi deb vakolat bersalar, ba'zi tadqiqotchilar esa bunday qarashlarni inkor etadilar. Chunonchi, O.Sharofuddinov naqshbandiylik yassaviylikdan «butunlay boshka bo'lgan so'fiylik oqimi» degan fikrni bildirgan.

Naqshbandiya tariqatining ildizi Uyg'onish davriga borib taqaladi. Sultonmurod Olim ingliz olimi J.S.Trimingemning tadqiqotlariga asoslanib, O'rta Osiyoda ikki olim Abulhasan Al-Xaraqoni (1034 yilda 80 yonshda vafot etgan) hamda Abu Ali al-Formadiy (1084 yilda vafot etgan)larning tasavvuf rivojida hissasi katta ekanligini ta'kidlydi. Tasavvuf olamida mashxur faylasuf Axmad al-G'azzoliy va Yusuf Hamadoniilar (1049-1140) yuqorida nomi qayd etilgan Farmadiyning shogirdlari bo'lgan.

Bu tariqatni ma'naviy tomoni Abu Bakr Siddiqga, jismoniy tomondan Ali ibn Abu Tolib orqali payg'ambar alayhissalom bilan bog'lanishini bildiradi.

Alisher Navoiy «Nasoyim — ul muhabbat min shamoyil ul futuvvat» asarida uvaysiylik Uvays Qaraniy nomi bilan yuritilishini ta'kiddaydi, chunki u Muhammad payg'ambarni zohir ko'zi bilan ko'rmasdan turib, ma'no va

ruhoniyyat yuzasidan tarbiyat olgan edi. Navoiy yozadiki, «har kishiningki bu toifadan zohir yuzidan piri ma'lum bo'lmasa va mashoyixdan biri ruhi ani tarbiyat qilgan bo'lsa, uni uvaysiy derlar».

Demak, uvaysiylik — botiniy, ruxlar vositasi ila ma'naviy, ruhiy tarbiya bo'lib, zohiriy tarbiyaga nisbatan oliy makomdir.

Ko'pgina tarixiy manbalarda Bahouddin Naqshband nakshbandiya tariqati asoschisi ekanligi va bu tariqat XIV asrning ikkinchi yarmida vujudga kelib oxirgi tariqat hisoblanganligi haqida izoh beriladi. Ma'lumotlarga ko'ra Bahouddin Naqshband «Hayotnoma» nomli va'z va pand-nasihatlarni o'z ichiga olgan bitta she'riy to'plam va «Dalil—ul— oshiqin» nomli tasavvufga oid kitob yozgan. Lekin bular hozirgacha topilgan emas.

Pedagogika fanlari doktori Ulfat Maxkamov «Yuqori sinf o'quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda o'tmish madaniy meros va uning ahamiyati haqida to'xtaladi. Unda Abdulholiq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Imom al-Buxoriy Imom at-Termiziy kabi allomalarning ijtimoiy taraqqiyot haqidagi fikrlarini o'rganish va o'quvchilarga tasavvuf, Markaziy Osiyo Uyg'onish davrining fani, madaniyati, gumanizm, demokratik g'oyalar» haqida tushunchalar berish bilan ularning axloqiy madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyatiga alohida e'tiborini qaratgan.

Pedagogika fanlari doktori Muhammadjon Quronov «O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari» mavzusidagi tadqiqot ishida tarbiyaviy ishlarni olib borish jarayonida foydalanish lozim bo'lgan manbalar tarkibiga: diniy manbalar va xilqimiz urf —odatlar bilan bir qatorda mutafakkirlar, allomalar bildirgan fikrlardan ham foydalanishga katta e'tibor berilganligini ko'rishimiz mumkin.

Pedagogika fanlari doktori Sanobar Nishonova «Sharq Uyg'onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi» mavzusidagi tadqiqot

ishida ham Bahouddin Naqshband va naqshbandiya tariqatining mohiyatini keng tahlil etgan.

Olima o'z tadqiqot ishining «So'fiylik ta'limotida barkamol inson muammosining talqin etilishi» mavzusida Bahouddin Naqshband hayoti va faoliyati, naqshbandiya tariqati va uning kelib chiqishi Uyg'onish davrlariga borib taqalishi haqida ma'lumot beradi, Bahouddin Naqshband ta'limotining asosini hosil qilgan o'n bitta qoidasi batafsil bayon qilinadi. Naqshbandiya tariqatining boshqa tariqatlardan farqi to'g'risida fikr yuritiladi. Naqshbandiya tariqatidagi axloqiy qarashlar insonni barkamol bo'lishi uchun asosiy manba ekanligi uqtiriladi.

Tadqiqotchi olim o'quvchilarning axloqini shakllantirishda o'z samarasini beradigan 34 ta hadisni keltirib o'tgan hamda ularning mohiyatini sharhlab berishga harakat qilgan. Bizga ma'lumki, Bahouddin Naqshband ta'limoti va tariqati Qur'oni Karim va Hadisga asoslanadi.

Shuningdek, pedagogika fanlari doktori O.Musurmonova "Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari" nomli tadqiqot ishida o'quvchilar ma'naviy madaniyatini shakllantirishda yangicha metodologik yondashuv masalasiga alohida to'xtalib o'tadi. Olima o'tmishning demokratik tajribasini tarixiylik, haqqoniylik nuqtai-nazaridan ko'ra olish o'z-o'zini anglash va jahon ijtimoiy, madaniy taraqqiyoti, umuminsoniy, milliy, madaniy qadriyatlarni uyg'un holda o'zlashtirish mahoratini shakllantirishga xizmat qilishi kerakligini uqtiradi. Bu esa quyidagi muammolarni hal etishda yordam berishini nazarda tutadi:

- maktab negizida ta'lim-tarbiya tizimini milliylashtirish;
- har bir o'quvchi xatti-harakati, xulq-atvorida umuminsoniy, milliy — ma'naviy qadriyatlarni tarkib toptirishga ko'maklashish;
- o'quvchining milliy, umumbashariy madaniyat manbalarining mohiyatini chuqur anglab yetishiga dasturiy yo'llanma berish;
- o'qituvchini ta'lim va tarbiyaning samarali shakllari, usul va vositalarini tanlashga to'g'ri yo'llash;

- o'quvchini milliy qadriyatlar orqali jaxon miqyosidagi ijtimoiy— iqtisodiy, madaniy jarayonlarga intilishini ta'minlashda to'g'ri yo'llanma berish.

Jumladan, Bahouddin Naqshbandning ta'limiy-axloqiy qarashlaridagi g'oyalar esa o'quvchilar ma'naviyatini boyitishda katta imkoniyatlarga ega. Shu maqsadda biz tadqiqot ishimiz davomida barkamol inson tarbiyasida Bahouddin Naqshbandning barkamol inson haqidagi g'oyalaridan sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonida foydalanish borasidagi taklifni ilgari surmoqdamiz.

Respublikamizda Bahouddin Naqshband hayoti, faoliyati, naqgdbandiya tariqatiga oid bir qator asarlar, tadqiqotlar yaratilgan bo'lsa -da, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda, ularni mehnatsevarlikka, kasb-hunarga yo'naltirishda Bahouddin Naqshbandning tarbiyaviy qarashlaridan foydalanish bugungi kunda o'z yechimini kutayotgan masalalardan biridir. Bu esa, o'z navbatida Bahouddin Naqshbandning ta'limiy-axloqiy qarashlarini o'rganish masalasi pedagogik muammo ekanligini asoslash imkonini beradi.

Muhammad ibn Jaloliddin al Buxoriy - Bahouddin Naqshband xijriy 718 (milodiy 1318) yilda Buxoroga yaqin Ko'shki Hinduvon qishlog'ida tug'iladi.

Bahouddin Naqshband asl ismi Muqammad ibn Jaloliddin al Buxoriy bo'lib, g'arbu sharqda Hazrat Bahouddin, Xoja Buzurg (Buyuk Xoja), Shoxi Naqshband nomlari bilan mashhurdir.

Hozirgi Buxoro viloyati Kogon tumanida joylashgan bu manzil Bahouddin Naqshband tug'ilishidan oldin "Qasri Hinduvon", ya'ni xindular yashaydigan qasr nomi bilan atalgan. Olimlarning fikricha, bu yerda avval budda diniga sng'ingan xindular ham yashagan va shuning uchun bu manzilga shu nom berilgan".

Muhammad Boboyi Sammosiyning bashoratlari bilan Bahouddin Naqshband tufayli bu joy Qasri Orifon bo'ldi.

«Bolalik chog'larimda buzurgvor shayx Xoja Muhammad Boboyi Sammosiy quddnsu sirruxuning nazari muboraklariga musharraf bo'ldim va

ular meni farzandlikka qabul qildilar. Tug'ilishimdan bir necha vaqtlar ilgari Qasri Hinduvondan kup marta o'tgan ekanlar va har gal: «Bu yerdan bir erning hidi kelmoqda, tez fursatda Qasri Hinduvon Qasri Orifonga aylanadi», - der ekanlar. Bir kuni o'z xalifalaridan bo'lgan Hazrati Sayyid Amir Kulol manzillaridan ketayotib aytibdilarki: «O'sha hid eiyo da bo'libdi, o'shal er tug'ilganga o'xshaydi». Darhaqiqat, Hazrati Bahouddin tug'ilgan ekanlar. Bahouddinni Muhammad Boboyi Sammosiy ma'naviy farzandlikka qabul qilib, Amir Kulolga «Farzandim Bahouddinga shafqatingni darig' tugmag'aysan, agar nuqsonga yo'l qo'ysang, seni kechirmayman!» deydi va unga Bahouddin tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanishni topshiradi.

Bahouddin Naqshband dunyoqarashi, o'z davrining talab va shargidan kelib chiqib, siyosiy arbob sifatida ham ibratli ishlarni amalga oshirgan, Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, alloma XIV asrda «Buxoroda Xalil Sulton bilan birga mahalliy xalqlarning siyosiy mustakilligi uchun kurashga boshchilik qilgan. Xalil Sulton davlatida u «Muqarrabi sulton» (sultonning eng yaqin kingasi) sifatida faoliyat ko'rsatgan.

Bahouddin, garchi avliyoulloh xizmatiga kirib, unga murid sifatida sadoqat ko'rsatgan bo'lsa ham, hayot unga darbor odobi qoidalari bilan oshno bo'lish va «dunyoning barcha koru boridan hafsalasi pir bo'lishi uchun imkoniyat yaratdi. Shundan so'ng uning biron shayx xizmatida bo'lganligi ma'lum emas».

Bahouddin Naqshbandning to'rtta xalifasi bo'lgan. Alouddin Atgor, Muhammad Porso, Ya'qubi Charxiy va Alouddin G'ijduvoniylardir.

Demak, naqshbandiya tariqati XIV asrda O'rta Osiyoda, so'ngra Afg'oniston, Hindiston, Turkiya, Eron, Sharqiy Turkiston, Arab xalqlariga tarqalgan. Ko'rinib turibdiki, Bahouddin Naqshband o'zining butun hayoti davomida ilm-ma'rifat izlagan, halol mehnat qilgan. O'zi olgan bilimlar, egallagan tariqatlarga tayangan holda tasavvuf ta'limotini demokratlashtirgan.

3. Insonparvarlik - kishilarni ma'naviy kamolotta yetaklovchi xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Komillik darajasiga eng avvalo, inson ruhining sofliги va pokligi bilan belgilanadi. Demak, bir so'z bilan aytganda, komillik - insonning ichki va tashki dunyoqarashning yuksak ma'naviy-axloqiy uyg'unligidan iboratdir.

Haqiqiy komillik sifatлари: insonlarni qadrlash, e'zozlash, hurmat qilish, sadoqatlilik, vijdonlilik, kamtarlik, bilimlilik, mehribonlik, shafqatlilik, mehnatsevarlik, shuningdek, insonning o'zligini anglashi kabilardir. Chunki, inson ham ma'naviy, ham ruhiy siymo bo'lib, uning asl mohiyati ma'naviyati bilan belgilanadi.

Tasavvuf g'oyalarining harakat sifatida ta'riflanishi. Ibn Arabiy: «Yomon axloqdan parhez qilish orqali ilohiysifatlar nuriga yetishdir» deya ta'rif bergan bo'lsa, Shayx Haririy esa «5shii va oliy hulqqa kirish va past xulkdanchiqishdir» deya ushbu fikrga yaqin keladigan ta'rif beradi

Tasavvuf g'oyalarining «tariqat», ya'ni «yo'l» sifatida ta'riflanishi. Bunday ta'rif ulug' mutafakkir Alisher Navoiy qalamiga mansubdir. Uning «Favoyidul Kibor» asarida quyidagi «Xilofu ixtilofi bo'lmagan zuxd, taqvo, toat emas, riyosiz xolis, sof tavhidga eltuvchi yo'l» kabi fikrlar ilgari suriladi. Maxmud As'ad Jo'shon ta'rifiga ko'ra «tasavvuf favqulodda yuksak darajadagi yo'l bo'lib, unda shaxs barkamol inson darajasiga ko'tariladi» yoki «dinimizning o'zagi, negizi va uning haqiqiy ma'nosi barkamol inson bo'lish yo'lidir» degan fikrlarni bildiradi

Tasavvuf g'oyalariini «ta'limot» sifatida ta'riflanishi. Filolog olimlar N. Komilov va Ibrohim Haqqullar mazkur tushunchani «ta'limot» deb ataydilar. Husayn Voiz Koshifiy esa «tasavvuf» tushunchasini quyidag'icha talqin etadi: «T» — tajrid, ya'ni, ortiqcha narsalardan xoli bo'lish (qolish), behuda ishlardan chetlashish, «S» -sidzu safo, «V» - vafo, «F» - fano - Tasavvuf ta'limoti bir necha tariqatlardan iborat bo'lib, ular orasida o'zining hayotiy g'oyalari, islom ta'limotiga nisbatan to'g'ri yondashuvni ifoda eta olgani bilan naqshbandiya

tariqati o'ziga xosdir.

Naqshbandiya tariqatining muhim xususiyatlari quyidagilardan iboratdir;

Birinchidan, Bahouddin Naqshbandiyning «Diling Allohda, qo'ling mehnatda bo'lsin» («Dil ba yoru, dast ba kor») shiori naqshbandiya tariqatining qo'l mehnati bilan halol ter tukishga, hayot kechirishga targ'ib qilishini ifodalaydi. Bunda Naqshbandiya tariqatiga kirgan bu kishilar oilasini obod qilish, mamlakatga qarash, savdo-sotiq bilan shug'ullanish kabi huquqlarga ega bo'lganlar. Shuning uchun ham bu tariqat tez rivojlanib, keng tarqala borgan.

Ikkinchidan, Naqshbandiya tariqatidagilar boshqa tariqatdagilar kabi «zikri aloniya» bilan emas, balki «zikri xufiya» bilan shutullanganlar. Zikri aloniyada muridlar yig'iladilar, raqsu simo' qiladilar, ya'ni kimdir tasavvufona g'azallarni ohang bilan o'qiydi, boshqalar esa raqs bilan zikrga tushadilar. Ular Alloh ismini yoki «lo iloha illalloh» so'zini ovozlari boricha aytadilar. Ahmad Yassaviy tariqatidagilar mana shu zikrga amal qilishgan bo'lib, ularning zikrlari «zikri arra» deb yuritilgan. Bunda zikr qilayotgan kishining ovozi arraning kesayotgandagi tovupshga qiyoslanadi. «Maqomati Naqshband»da keltirilishicha Jaloliddin Rumiy asos solgan mavlaviya tariqatidagilar ham ana shu yo'lni tanlaganlar.

Uchinchidan, Naqshbandiya tariqatiga kirgan valiylarda bemordan kasallikni tortib olib, so'ng bu illatni o'zlaridan chiqarib tashlash quvvati mavjud edi. Boshqa tariqatlarda esa kasallikni tortib olib, uni qayta haydab yuborish quvvati bo'lmagan.

To'rtinchidan, Naqshbandiya tariqatidagi avliyolar karomatfurushlikka keskin qarshi bo'lganlar. Bunda muridning asosiy maqsadi — ma'naviy va ruhiy poklanish, iborat, Bahouddin Naqshband musulmonlar og'ir holatga tushib qolganlaridagina karomat ko'rsatishni lozim topgan. Boshqa hollarda esa shogirdlarini o'z ilmu hunarlariga qiziqtirish yoki ularga namuna bo'lish, tarbiyalash maqsadidagina bu ishga qo'l urganlar.

2.2. Bahouddin Naqshband ta'limoti asosini tashkil etuvchi g'oyalar dunyoviy, ruhiy mazmun kasb etishi bilan birga ijtimoiy munosabatlar, ularni mo'tadil tashkil etish, inson umrining asl mohiyati kabi masalalar xususida mushohada yuritishga yo'naltirilgandir, Inson hatti-harakati, faoliyatining turli yo'nalishlari borasidagi g'oyalar mazkur ta'limotni o'rganuvchidan teran mushohada, tafakkur yuritiishi talab etadi. Bahouddin Naqshband ta'limoti mohiyatini idrok etish, undan amaliy faoliyatda foydalana olish, avvalo, ushbu tariqat hamda uning asoschisi bo'lgan Bahouddin Naqshband hayoti, turmush tarzidan xabardorlikni talab etadi. Alloma hayoti, turmush tarzi, shuningdek, uning tomonidan yaratilgan ta'limot mazmunidan xabardorlik bu boradagi nazariy bilimlarni izchil, uzluksiz hamda samarali o'zlashtirilishi natijasida yuzaga keladi. Umumiy uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan ta'lim jarayoni Bahouddin Naqshband ta'limoti mazmuni to'g'risida o'quvchi va talabalarga ma'lumotlar berishda o'ziga xos ichki imkoniyatlarga egadir,

Ta'lim—tarbiya jarayonida o'quvchilarga Bahouddin Naqshband shaxsi va u tomonidan asos solingan naqshbandiya ta'limotini o'rganish izchil, uzluksiz, aniq maqsad sari yo'naltirilgan jarayon bo'lib, mazkur jarayonda o'quvchilarda shakllangan ong va dunyoqarash, idrok va tafakkur ko'lami muhim ahamiyatga egadir. Zero, barkamol inson tarbiyasiga yo'naltirilgan mazkur ta'limotning o'zida mujassam etgan g'oyalari mohiyatini o'zlashtirish, ularning zamon talablariga muvofiq amaliy faoliyatda qo'llay olish bir qadar murakkabdir.

O'quvchilarga Bahouddin Naqshbandning ta'limiy-axloqiy qarashlaridan foydalanishdan ko'zlangan asosiy maqsad - o'quvchilarga Bahouddin Naqshband shaxsi va u tomonidan asoslangan naqshbandiya ta'limoti, uning g'oyalari, shuningdek, hayotiy o'g'itlari yuzasidan ma'lumotlar berish, ularda bu boradagi tasavvurni shakllantirish, ular tomonidan ushbu meros mohiyatini o'zlashtirishga yordam beruvchi didaktik shart-sharoitlarni yaratishdan iborat etib belgilanadi. Ularni quyidagicha ko'rsatishimiz mumkin:

1. O'quv fanlarini o'qitish jarayonida o'quvchilarga Bahouddin

Naqshband ta'limiy — axloqiy merosi xususida ma'lumotlar berish, ta'lim jarayonida ulardan foydalanish yo'lida o'quvchilarga Bahouddin Naqshband ta'limiy—axloqiy qarashlari haqida nazariy ma'lumotlar berish, ularda mazkur ta'limot borasidagi tasavvurni hosil qilish.

2. O'quvchilarda Bahouddin Naqshband shaxsi va naqshbandiya ta'limotini o'rganishga nisbatan qiziqishni yuzaga keltirish.

3. O'quvchilarda Bahouddin Naqshband shaxsi, shuningdek, uning ta'limoti g'oyalari nisbatan hurmatni qaror toptirish.

4. Oquvchilarda Bahouddin Naqshband ta'limotini o'rganishga nisbatan to'g'ri, oqilona yondashuvni yuzaga keltirish.

5. Yuqori sinf o'quvchilarida Baxouddin Naqshband ta'limotida ilgari surilgan g'oyalardan amaliy faoliyatda foydalanish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish.

Mazkur vazifalarning ijobiy hal etilishi bir qator ijtimoiy fanlarni o'qitish jarayonida quyidag'i didaktik shartlarga amal qilish lozimligini taqozo etadi.

- Uzluksiz ta'lim muassasalari o'quvchilariga Bahouddin Naqshband ta'limoti haqida nazariy bilimlar berishda hozirgi zamon talablarini inobatga olish.

- O'quvchilarga Bahouddin Naqshband ta'limoti xususida ma'lumot berishda ularning yosh, fiziologik hamda biologik xususiyatlari, shuningdek, ularda naqshbandiya ta'limotida ilgari surilgan ta'limiy-axloqiy g'oyalarni o'rganishga bo'lgan qiziqishni hisobga olish.

- Bahouddin Naqshbandning ta'limiy—axloqiy merosini o'rganish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi hamda talabalar o'rtasida ijodiy muloqotni yuzaga kelishiga sharoit yaratish;

Uzluksiz ta'lim muassasalarida Bahouddin Naqshbandning ta'limiy — axloqiy merosidan foydalanish borasidagi maqsad va vazifalarning ijobiy hal etilishi quyidagi bir qator omillarning mavjudligi bilan belgilanadi:

- fan o'qituvchilarining Bahouddin Naqshband ta'limoti

g'oyalaridan xabardorliklari, shuningdek, mazkur ta'limot g'oyalarini to'g'ri talqin eta olishlari.

- Bahouddin Naqshband ta'limoti hamda uning ta'limiy-axloqiy xususiyatlarini yorituvchi manbalar (o'quv va metodik qo'llanmalar, risolalar hamda tavsiyanomalar}ning mavjudligi.

- Bahouddin Naqshband shaxsi va uning ta'limoti mohiyati to'g'risida hikoya qiluvchi teleradio hamda zamonaviy axborot vositalari materiallaridan samarali foydalana olish imkoniyatiga egalik.

Xulosa

Naqshbandiya ta'limoti g'oyalari insoniyatni kamolotga yetaklaydi va tanazzuldan asraydi. Olib borilgan tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, uzluksiz ta'lim tizimida Bahouddin Naqshbandning ta'limiy — axloqiy merosidan maqsadga muvofiq hamda samarali foydalanish, alloma g'oyalarshga o'rganish jarayonida o'quvchilarning yosh psixologik xususiyatlarini hamda qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olish, pedagoglarning alloma qarashlari mohiyatidan to'laqonli xabardor bo'lishlari o'rganilayotgan muammoning ijobiy yechimga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Bahouddin Naqshband ta'limiy-axloqiy merosi milliy istiqlol g'oyasining diniy, falsafiy, madaniy ta'lim-tarbiya ildizidir va milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasi ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni ta'minlashga xizmat qiladi.

Milliy pedagogikamiz ta'limiy-axloqiy qarashlarga boy bo'lib, bu borada Bahouddin naqshbandning ilmiy-pedagogik merosi nihoyatda boyligi tadqiqotda o'z isbotini topdi.

Bahouddin Naqshband ta'limiy-axloqiy qarashlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va uning rang-barang metodikasini yaratish zaruriyati mavjudligi mavjud holatni o'rganish jarayonida kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi- Toshkent.: "O'zbekiston". - 2008.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: "Sharq".- 1998.
3. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: "Sharq". – 1998.
4. Karimov I. A. "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch"- T.: "Ma'naviyat". – 2008.
5. Karimov I. A. Ulug' alloma Abdulxoliq G'ijduvoniylavalludining 900 yilligiga bag'ishlangan marosimda so'zlagan nutqi. //Xalq so'zi ro'znomasi.-28 noyabr 2003.
6. Karimov I.A. Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlag'an nutqi. //Xalq so'zi.-15 sentabr 1993.
7. Bohir M. Bahouddin Balogardon. (Fors tilidan Maxmud Hasaniyl tarj.-T.: "Yozuvchi". - 1993. -206 b.
8. Bobomurodov A. Islom odobi va madaniyati.-T.: "Cho'lpon". - 1995. - 176
9. Buxoriy S.S Dilda yor (Hazrat Bahouddin Naqshband). Badia.-T.: G'ofur G'ulom nom. 1993. -80 b.
10. Buxoriy S.S.Bahouddin Naqshband yoki yetti pir.-T.: "Yozuvchi" 1993.